

## ZAMONAVIY TA'LIM TUSHUNCHALARI.

**Mustafoyeva Sitorabonu Rustam qizi**

**Annotatsiya:** maqolada ta'lim samaradorligini oshirish maqsadida o'quv jarayonida zamonaviy interfaol metodlardan foydalanishning ahamiyati, o'quvchilarning mustaqil, erkin va tanqidiy fikrlashiga oid keng qamrovli taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim oluvchi, ta'lim beruvchi, ta'lim samaradorligi, ta'lim metodlari, interfaol metodlar, rolli o'yin, charxpalak.

**Annotation:** The importance of using modern interactive methods in the learning process in order to increase the effectiveness of teaching in the article, comprehensive suggestions and recommendations for independent, free and critical thinking of students have been developed.

**Keywords:** learner, educator, learning effectiveness, teaching methods, interactive methods, role play, charkhpalak.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da oliy ta'lim jarayonlariga raqamli texnologiyalar va zamonaviy o'qitish usullarni joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga keng jalb etish, korrupsiyaga qarshi kurashish, muhandislik- texnik ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar ulushini oshirish, kredit- modul tizimini joriy etish, o'quv

rejalarida amaliy ko'nikmalarni oshirishga qaratilgan mutaxassislik fanlari bo'yicha amaliy mashg'ulotlar ulushini oshirish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berilgan. Ta'lim samaradorligini oshirishda o'ziga xos zamonaviy yondashuvlaridan biri bu innovatsion yondashuv bo'lib, bunda o'qitish jarayonlarini tashkil etishda shakl, metod va vositalarning o'zaro uyg'unligini hisobga olgan holda tanlash asosida o'qituvchi va ta'lim oluvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini rivojlantirish sanaladi.

Innovatsion yondashuv asosida ta'lim jarayonini tashkil etishda uning asosiy komponenti interfaol ta'lim metodlari hisoblanadi.

Interfaol metod - bu ("inter"-bu o'zaro,"act" -harakat qilmoq) ma'nolaridan kelib chiqib, o'zaro harakat qilmoq, hamkorlik muloqot tartibida bo'lishni anglatadi .

Interfaol metodlar deganda -ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida sub'ekt- sub'ekt munosabatini tashkil etuvchi metodlar tushuniladi<sup>3</sup> .

Pedagogikaga oid adabiyotlarda interfaol ta'limning samarali jihatlarini quyidagicha baholanadi:

1. Interfaol ta'lim metodlari ta'lim oluvchilardagi bilish jarayonlarini faollashtirish, o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni aniq vaziyatlarda qo'llay olish, o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, ijodiy izlanish imkonini beradi.

2. Interfaol ta'lim metodlari – ta'lim oluvchilardagi motivatsiyani, nostandart vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila olish ko'nikmalarini, tadqiqotchilik faolligi, kreativ fikrlash ko'nikmasini rivojlantiradi.

3. Interfaol ta'lim muhiti ta'lim oluvchilarda muammolarni ko'ra bilish, tahlili qilish, faol hayotiy pozitsiyani shakllantirish, tolerantlik, o'zgalar fikriga hurmat, jamoadagi hamkorlik, hayotiy qadriyatlarini rivojlantirishga qulay shart-sharoitlarni yaratadi. Pedagogik texnologiya ta'lim-tarbiya jarayoniga o'ziga xos bo'lgan innovatsion yondashuvdir. U pedagogikada ijtimoiy-muxandislik taffakurining ifodasi, o'qitish, tarbiyalash jarayonini ma'lum darajada standartlash demakdir. Jumladan, o'qitishning og'zaki bayon qilish usullaridan voz kechib, kompyuterlar, ta'limning texnik vositalari yordamida o'qitish, o'quvchi bilish faoliyatining boshqaruvchisi, tashkilotchisi, maslahatchisi ustoz rahbarligida talabalarning ko'proq mustaqil ishlarini tashkil etish va eng muhimi o'qituvchining deyarli bir-xil yakuniy natijaga erishish imkoniyatini beradi. Zamonaviy ta'lim tizimining vazifasi bolaga shunchaki bilim berish emas, ijodiy tafakkurini loyihalashtirishdan iboratdir. Bolalarni ta'lim jarayoniga jalb etish qiziqtirish juda muxim. Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridada bolalar uchun tayyorlangan multimediyali vositalar ovozli, musiqali, harakatlanuvchi, rangli, multifikatsiyali va jozibali, eng muhimi bola yoshiga mos bo'lishi zarur.

Har bir mashg'ulot jarayonida tarbiyachi didaktik tamoyillarga tayangan

holatda yondashishi talab etiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonida axborot texnologiyalardan foydalanishning didaktik tamoyillari qatoriga: dasturlashtirish, ilmiylik, moslik, jadallik, ta'lim maqsadlarining o'zaro bog'likligi, ko'rgazmalilik, tizimiylik, materialning tushunarli bo'lishi, faollik va mustaqillik, rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi omillari, vositaning ixchamligi va umumiyliigi kiradi. Ta'lim materialining tushunarli bulish tamoyili kompyuter xotirasiga kiritilgan va o'rganishga taalluqli materiallarni monitor ekraniga chiqarish va namoyish etish asosida amalga oshiriladi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, bugungi kunda zamonaviy ta'lim tizimining vazifasi bolaga shunchaki bilim berish emas, ijodiy tafakkurini loyihalashtirishdan iboratdir. Bu jarayonda esa tarbiyachidan bolalarning qiziqishidan kelib chiqqan xolda mashg'ulotga to'g'ri yondasha olishi va qiziqarli qilib tashkillashtirish talab qilinadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar uchun tayyorlangan multimediyali vositalar - ovozli, musiqali, harakatlanuvchi, rangli, multifikatsiyali va jozibali, eng muhimi bola yoshiga mos bo'lishi zarur. Bundan tashqari tarbiyachi har bir vositani o'z o'rnida qo'llay olish malakasiga ega bo'lsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Inson voqelik to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlarni ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm bilish, tuyish kabi sezgilar orqali qabul qiladi. Sezgilar orqali qabul qilingan ma'lumotlar miyada muayyan xususiyatlariga ko'ra yaxlit

holga, ma'lum bir tizimga olib kelinishi, ya'ni ma'lumotlar idrok qilinishi lozim bo'ladi. Axborotlarning uzviyligi va davomiyligini ta'minlashga xizmat qiluvchi bu jarayon ularni xotirada saqlash va zarur holatlarda qayta esga tushirishdan iborat bo'ladi. Ma'lumotlarni qabul qilishda qanchalik ko'p sezgi organlari qatnashsa, uni idrok etish, o'zlashtirish va xotirada saqlash shunchalik oson kechadi. Ikkinchi tomondan, har bir kishida qaysidir sezgi organlari ko'proq, qaysilaridir kamroq rivojlangan bo'ladi. Shu bois, ta'lim jarayonida nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, o'quv materiallarini turli ko'rinishlarda, turli sezgi organlari orqali qabul qilinishi va idrok etilishini tahminlash – ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Charxpalak metodi-o'quvchilarni o'tilgan mavzularni esga olishga, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to'g'ri javob berishga va o'z-o'zini baholashga o'rgatishga hamda qisqa vaqt ichida o'qituvchi tomonidan barcha o'quvchilarning egallagan bilimlarini baholashga qaratilgan metoddir.

“Charxpalak” metodining maqsadi: o'quvchilarni dars jarayonida mantiqiy fikrlash, o'z fikrlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o'zlarini baholash, yakka va guruhlarda ishlashga, boshqalar fikriga hurmat bilan qarashga, ko'p fikrlardan keraklisini tanlab olishga o'rgatish.

Mazkur metodning qo'llanilishi: o'quv mashg'ulotlarining barcha

turlarida dars boshlanishi, dars oxirida yoki o'quv predmetining biron-bir bo'limi tugallanganda, o'tilgan mavzularni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash yoki oraliq va yakuniy nazorat o'tkazish uchun mo'ljallangan. Ushbu texnologiyani mashg'ulot jarayonida yoki uning bir qismida yakka, kichik guruh va jamoa shaklida tashkil etish mumkin<sup>5</sup>.

Metodning o'tkazilish tartibi:

1.O'quvchilar ikkita guruhga ajratiladi, ular "O'quvchilar" va "O'qituvchilar" guruhi deb nomlanadi hamda alohida-alohida joylashtiriladi.

2.Savollar ishlab chiqish

3. "O'quvchilar" guruhiga savol berish va javobni baholash.

4. "O'quvchilar" guruhining "O'qituvchilar" guruhiga o'tishi.

5. "O'qituvchi" guruhining savoliga javob berishi.

6.Baholarni umumlashtirish va e'lon qilish.

Xulosa qilib aytganda, interfaol ta'lim metodlaridan dars jarayonida

foydalanish o'quvchilarda yuqori darajada motivatsiya (qiziqish)ni shakllantirishga yordam beradi; o'quvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi; nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llay olishni o'rgatadi; o'quvchilarda berilgan vaziyatni tahlil qilish malakasi

shakllanadi. Shuningdek, o'quvchiga o'z ishidagi yutuq va kamchiliklarni tushunishda yordam beradi, o'qituvchilarning faoliyatini takomillashtirish uchun qulay sharoitni vujudga keltiradi, dars mashg'ulotlari o'quvchilar uchun qiziqarli bo'lib, ularni yangi bilimlarni samaraliroq o'zlashtirishlariga omil bo'la oladi.

Foyqiziqishidan kelib chiqqan xolda mashg'ulotga to'g'ri yondasha olishi va qiziqarli qilib tashkillashtirish talab qilinadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar uchun tayyorlangan multimediyali vositalar - ovozli, musiqali, harakatlanuvchi, rangli, multifikatsiyali va jozibali, eng muhimi bola yoshiga mos bo'lishi zarur. Bundan tashqari tarbiyachi har bir vositani o'z o'rnida qo'llay olish malakasiga ega bo'lsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрь “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5847-сонли Фармони.
2. M.U.Dexkanova, K.I.Axmetova. Ta'lim texnologiyalari . -Т.: 2020.-110-b.

3. Umumiy pedagogika / A.Abdullayeva, H.Ch.Nusratova,  
F.A.Abdullayev,

A.B.To'rayev. -T.: 2021.-117-b.

4.Innovatsion ta'lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboyeva  
M.H., A.Sayfurov D.M., To'rayev A.B. – T.: “Sano standart” nashriyoti,  
2015. – 81-b

5.Zamonaviy ta'lim metodlari – ta'lim samaradorligi kafolati.  
International scientific-practical conference on the topic of “Problems and  
perspectives of modern technology in teaching foreign languages”  
volume 2 | special | issue 20 | ISSN 2181-1784 SJIF 2022: 5.947 | ASI  
Factor = 1.7

6.<http://nambiolg.zn.uz/files/Charxpalak-texnologiyasi.pdf>

Musurmonov Raxmatilla, Usarboeva D. U., Otaqulov A., Kurbanbayeva  
N.

7. L.Mirjalolova va boshq. "Mashg'ulotlarni o'tkazish texnologiyalari"  
moduli bo'yicha o' quv -uslubiy majmua. T.: 2018 y. 257 bet.

8. [www. Ziyonet. uz](http://www.Ziyonet.uz)